



NAVOIY VILOYATI ZARAFSHON SHAHAR HOKIMINING QARORI

210300, Zarafshon sh., Marvarid ko'chasi 1

2022 - yil 23 - dekabr

319-5-78-Q/22

Zarafshon shahar hokimligi

Navoiy viloyati hokimining 2022-yil 30-noyabrdagi “Viloyat, tuman va shahar hokimliklarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 235-5-0-Q/22-son qarorining ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–81-sonli qaroriga, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2021 yil 10 sentyabrdagi 03-07/6208-sonli xati va 2021 yil 18 oktabrdagi 01-07/6859-sonli tavsiyalariga muvofiq, viloyat, tuman va shahar hokimliklarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Navoiy viloyati hokimining 2022-yil 30-noyabrdagi “Viloyat, tuman va shahar hokimliklarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 235-5-0-Q/22-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan:

viloyat, tuman va shahar hokimliklarida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati 1-ilovaga muvofiq;

viloyat, tuman va shahar hokimliklarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti 2-ilovaga muvofiq;

viloyat, tuman va shahar hokimliklarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida nizom 3-ilovaga muvofiq;

viloyat, tuman va shahar hokimliklarida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti 4-

ilovaga muvofiq;

viloyat, tuman va shahar hokimliklarida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma 5-ilovaga muvofiq;

viloyat, tuman va shahar hokimliklarida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 6-ilovaga muvofiq;

viloyat, tuman va shahar hokimliklarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti 7-ilovaga muvofiq;

viloyat, tuman va shahar hokimliklarida korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament 8-ilovaga muvofiq;

viloyat, tuman va shahar hokimliklarida davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risida nizom 9-ilovaga muvofiq;

viloyat, tuman va shahar hokimliklarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar 10-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Shahar hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari (Sh. Sirojov)ga:

uch kun muddat ichida qonunchilik hujjatlarida o'rnatilgan tartibda mazkur qaror ijrosining monitoringi ma'lumotlari yuritilishini ta'minlash yuzasidan mas'ul xodim biriktirish hamda mas'ul xodimga oylik ish haqi maoshiga qo'shimcha ustama tayinlash choralari ko'rish;

shahar hokimligida ilk bor ishga qabul qilinayotgan xodimlarni tasdiqlangan qoidalar bilan to'liq tanishtirilishini ta'minlasin.

Qaror ijrosi yuzasidan har oylik va choraklik ma'lumotlarni viloyat hokimligi apparati korrupsiyaga qarshi ichki nazorat sho'basiga taqdim etib borilishini ta'minlash topshirilsin.

4. Shahar hokimining o'rinbosarlari, shahar hokimligi mas'ul xodimlari doimiy ravishda mazkur qarorga muvofiq tasdiqlangan qoidalar qat'iy rioya etilishini ta'minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Shahar hokimi



N. Rahmanov